



1991-yildan
chiqa boshlagan.

2015-yil. 11-son.

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН


Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.tilvaadabiyot.uz til@sarkor.uz www.tilvaadabiyot.uz til@sarkor.uz www.tilvaadabiyot.uz til@sarkor.uz www.tilvaadabiyot.uz til@sarkor.uz www.tilvaadabiyot.uz til@sarkor.uz

Kitob – sahroda suv, zulmatda nur topishni o'rgatadi



B.Rizoqulov olgan surat.

USHBU SONDA



Do'z'arb mavzu

Ta'lim sifati monitoringi

3-bet

Diqqat! Yangi rukn:
Yangilanayotgan uslub

Har bir dars –
muallim uchun
imtihon

7-bet

Tahlil va taklif

«Go'ro'g'li» dostoni
variantlari tahlili

33-bet



Nauchnye issledovaniya

Восточные истоки
«Сказки о царе
Салтане...»
А.С.Пушкина

стр. 60



**Ispol'zuyte
ete materialy**

Развитие
познавательной
активности
у обучающихся
в процессе изучения
русского языка

стр. 69



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2015-yil. 11-son.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.tilvaadabiyot.uz | tilvaadabiyot.uz | www.tilvaadabiyot.uz | tilvaadabiyot.uz | www.tilvaadabiyot.uz | tilvaadabiyot.uz | www.tilvaadabiyot.uz | tilvaadabiyot.uz

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor DONIYOROV
Mamatqul JO'RAYEV
Shahnoza JO'RAYEVA
Islom ZOKIROV
Ulug'bek INOYATOV
Abduhamid MUXTOROV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Hikmatilla RASHIDOV
Sirojiddin SAYYID
Ergash UMAROV

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Lutfullo JO'RAYEV
Ehson TURDIQULOV
Valijon QODIROV

Sahifalovchilar:

Husan SAFARALIYEV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Telefon: (8-371) 244-04-18,
244-04-15, 244-20-63, 244-26-89.

e-mail: til@sarkor.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jumaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olinadi, deb izohlanishi shart. Jumalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 17.11.2015-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₈. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» gamiturası. 10, 11 kegl. «KOLORPAK» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Elbek ko'chasi, 8. Buyurtma № 1398. Adadi 7300 nusxa.

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar e'lon qilinishi lozim bo'lgan respublika ilmiy jurnalidir.

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU	
B.Umarova, J.Nurmuxammadov. Ta'lim sifati monitoringi.....	3
DIQQAT! YANGI RUKN: YANGLANAYOTGAN USLUB	
Uldona Abdurahmonova. Har bir dars — muallim uchun imtihon	7
DARS — MUQADDAS	
Muhiba Rajabova. Fe'l-kesim va ot-kesim	11
Dilorom Zufarova. So'z birikmasi va gap	13
Sabohat Qahhorova. "So'zim bunda qalur..."	14
Aziza Ishanova. "Bori elga yaxshilig" qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q..."	17
Nilufar Qodirova. Alisher Navoiy lirikasi	20
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
R.Rasulov. Chalq'itish yoki hushyorlikni aniqlash va oshirish usuli	23
Klara Mavlonova. O'quvchining yozma nutqi qanday shakllanadi?	24
Noila Mahmudova. Yozma nutqni o'stirish mashqlari	25
Sherali Uralov. Xorijiy tildagi yangi so'zlar bilan ishlash	26
N.Mamajonova. Chet tilini o'qitishda yuzaga keladigan xatoliklarni bartaraf etish usullari	27
LET'S LEARN ENGLISH	
Lutfullo Jo'rayev. Keling, ingliz tilini o'rganamiz!	28
TEACHING ENGLISH	
Assessing learning 1: Self — and peer assessment by Kevin Thomson	31
Assessing learning 2: Error correction codes by Kevin Thomson	32
TAHLIL VA TAKLIF	
Jonmirza Mirzayev. «Go'ro'g'li» dostoni variantlari tahlili	33
TADQIQOTLAR	
Muxtorali Zokirov. Kontakt lingvistikasi va uning terminologiyasi	36
Saodat Qambarova. Adabiy ta'limga kompetensiyaviy yondashuvga doir tahlil usullari	38
M.Rahmanova. Chet tilmari o'qitishda kommunikativ til o'qitish usulining ustunlik jihatlari	42
KICHIK TADQIQOT	
Manzura Rahmonova. "Bobur ensiklopediyasi" o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda muhim manba	45
Gulalal Kamolova. Mashrab nazmiyatida xalq maqollarining badiiy ifodasi	46
ABTURIYENTGA YORDAM	
Yorqinjon Odilov. Tushirilgan olmosh qayerda?	47
МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ	
З.Ю.Атаева. Методические рекомендации по проведению месячника русского языка в общеобразовательных учреждениях	49
ВНЕКЛАССНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ	
У.А.Алиакулова. Осенний бал	51
ЯЗЫКОВЗНАНИЕ	
И.А.Азимова. Роль лингвистических и экстралингвистических факторов в воспроизведении и восприятии глаголов в афазии	53
Н.Э.Шакурбанова. Принципы анализа синтаксических признаков сложносочиненного предложения	55
СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОВЗНАНИЕ	
О.Ж.Латипов. Особенности семантической структуры соматической лексики русского и узбекского языков	57
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ	
Л.М.Соколова. Восточные истоки «Сказки о царе Салтане...» А.С.Пушкина	60
ПРОБЛЕМЫ. ПОИСК. РЕШЕНИЯ	
Ш.М.Самигджанова. Проблема обучения профессиональному общению на русском языке	64
ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ	
Г.Н.Хидирова. Роль метода проектов как инновационного развития умений и навыков лингвистического анализа	66
Ш.М.Султанова. Некоторые аспекты внедрения модульного обучения. Модуль — как система знаний	67
ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ	
М.А.БатYROVA. Развитие познавательной активности у обучающихся в процессе изучения русского языка	69
М.К.Абдуллаев. Применение ситуативной методики Case Study в преподавании испанского языка	71
Г.Камиллова. Нарушение цельности PR-текста как фактор снижения уровня восприятия PR-информации	75
КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ	
М.С.Мухамедова. Принципы исследования и пропаганды объектов историко-культурного наследия в регионе низовьев Амударьи	78

Klara MAVLONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

O'QUVCHINING YOZMA NUTQI QANDAY SHAKLLANADI?

"Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak".

Darhaqiqat, ona tili darslarida o'quvchilar badiiy matnning til xususiyatlari, badiiy tasvir vositalari, obrazlilikni vujudga keltirish sir-asrorlari bilan tanishtirilgan ekan, ularda ijod qilish istagi paydo bo'lib, bu tobora intilishga aylanib boradi. U kelajakda yozuvchi yoki shoir bo'lib yetishmasada, matbuotda o'z maqolalari bilan ishtirok etishi va bunda olingan bilim, amaliy ko'nikmalar o'z mevasini berishi aniq.

Badiiy ijodga "Ona tili" darsliklarida matn yaratishga doir berilgan topshiriqlar, shu darsliklar yuzasidan tayyorlangan metodik qo'llanmalardagi yo'riqlar ham turtki bo'lib xizmat qiladi, albatta.

9-sinf "Ona tili" darsligi bo'yicha tayyorlangan "O'qituvchi kitobi"da quyidagi kabi topshiriqlar tavsiya etilgan: "237-mashqqa ko'ra "Yurtimizda bahor" mavzusida badiiy matn tuzish va unda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish, badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritish uyga vazifa qilib beriladi. Iqtidorli va ijodkor o'quvchilarga esa matnni she'riy tarzda yozish tavsiya etiladi". Agar muayyan tayyorgarlik ishlari bo'lmasa, bunday vazifalarni uddalash birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. O'quvchilarning badiiy matn tuzish topshirig'ini muvaffaqiyatli ado etishlari uchun oldindan mazmunli va ta'sirchan gap tuzish ustida ish olib borish³, tuzilgan gaplarning badiiy qimmatini vujudga keltirish maqsadida esa so'z tanlash bilan bog'liq tahrir mashqlarini o'tkazib turish zarur. Zero, o'quvchi har gal so'z tanlash, fikrni to'g'ri, aniq va yorqin ifodalash va kommunikativ natijaga erishish uchun so'zlarni gapga birlashtirish, matnni qanday qurish to'g'risida o'ylay boshlaydi.

A.G'ulomov, B.Qobilova so'zga alohida urg'u berib, shunday deydi: "So'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkaza olish lisoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir so'z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi".

N.D.Moldavskayaning ta'kidlashicha, "Maktab talimi sharoitida o'quvchilarning adabiy ijodkorligi (erkin mavzuda va hayotiy taassurotlar bo'yicha yoziladigan insholar, hikoyalar, she'rlar) bu adabiy faoliyat natijasidir. Hech bir shubhasiz, u adabiy rivojlanish ko'rsatkichi sifatida sinchiklab o'rganilishi kerak".



Ijodkorlik mashg'ulotlari badiiy tasvir san'atining xilma-xil qirralari (so'z va so'z shaklini kerakli ma'noda tanlay bilish va bu borada xatolarga yo'l qo'ymaslik; ba'zan so'z va so'z shakllarini qo'llashdagi noo'rin takroran qutulish; tasvir uchun eng maqbulini tanlash; inson, tabiat hamda voqea-hodisalardagi go'zalliklarni yetkaza bilish va hokazolar) bilan tanishish asnosida amalga oshadi. Shu ma'noda o'quvchi so'z takrori, ritorik so'roqlar, his-hayajon gaplar, emotsional-ekspressiv vositalardan o'rinli foydalanish qoidalarini egallab borishi kerak.

Badiiy uslubda ijodiy matn yaratayotgan o'quvchi quyidagi eslatmaga amal qilishi kerak:

Badiiy uslubda ijodiy matn yaratayotgan o'quvchiga esdalik

1. Tuzayotgan gapingiz uchun tanlayotgan so'zingiz jarangdorlik, ifodalilikni ta'minlasin.
2. Odamlar, voqea-hodisa, narsa-buyumlarni kitobxon yaqqol ko'z oldiga keltirishi uchun bo'yoqdor, ta'sirchan so'zlar, badiiy tasvir vositalarini tanlashga harakat qiling.
3. Gaplarda emotsional-ekspressiv, leksik va grammatik vositalarni ishlating.
4. Gaplarning sintaktik jihatdan rang-barang bo'lishiga e'tibor bering.
5. Matnda tabiat go'zalliklarini aks ettirishga harakat qiling.
6. Matnda obrazlilik asosida tag ma'no – voqelikka, odamlarga turlicha munosabat aks etsin.

Ona tili darslari o'quvchilarning badiiy uslubda yozilgan matnni tahrir qilish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Shu maqsadda ularga o'zlari yaratgan matndan olingan uch-to'rtta gapni tahrir qilish vazifa qilib beriladi. O'quvchilar bu jarayonda quyidagi ishlarni bajarishlari kerak bo'ladi:

- 1) so'zlarning ohangdorligi, gaplarning mazmunligini kuzatish va to'g'rilash;
- 2) o'rganilgan til hodisalari doirasida emotsional-ekspressiv, leksik va grammatik vositalarni kiritish;
- 3) voqelikni ko'z oldiga keltirgan holda matnga badiiy tasvir vositalarini kiritish;
- 4) unga ritorik figuralar qo'shish.

Tahrir ishlari jamoa yoki guruh bo'lib bajariladi. Har bir guruh o'zining tahrir variantini taqdim etadi. Gaplarni eng maqbul holatga keltirgan guruh g'olib sanaladi.

Kuzatishlardan ma'lumki, ijod quvonchini his etgan, bajarayotgan ishi haqiqatan qiziqarli ekanligi, zavq bag'ishlashiga ishonch hosil qilgan o'quvchi chiroyli so'zlashga harakat qiladi. Shuningdek, ijodkorlikka bir marta qo'l urib, kichkina muvaffaqiyatga

erishgan o'quvchi kundalik tutadi, o'z taassurotlarini yozib yuradi, ya'ni ijod sir-asrorlarini o'rganishga oshmo tutinadi.

Matn yaratish va uni tahrir qilish jarayonida o'quvchilarning ishtiroki turlicha bo'ladi: biri so'zni tez tanlaydi, ikkinchisi chiroyli jumla tuzadi, uchinchisi navbatdagi gapga ishora qiladi.

O'quvchilarning nazm va nasr sohasidagi mashqlarini ko'pchilik hollarda badiiy jihatdan yuksak deb atab bo'lmaydi, albatta. Lekin ko'rgan narsalari haqida o'ygab tolgan, hayotning yorqin go'zalliklarini ko'ra bilgan, atrofda voqealarga bo'lgan munosabatini tushunish

uchun o'z ko'ngliga qaray bilgan kishi o'zining ichki olamini boyitadi. Bunday inson hayotiy voqealar mohiyatini ko'ra biladi, sodir bo'layotgan jarayonlarni baholay oladi, ilmiy, publitsistik va oddiy so'zlashuv uslubida ham o'z fikrlarini ifodalay biladi.

Xullas, ona tili darslarida o'quvchilar badiiy matnning til xususiyatlari, badiiy tasvir vositalari, obrazlikni vujudga keltirish sir-asrorlari bilan tanisha borib, o'zlarida ham ijod qilish istagi paydo bo'ladi, bu istak intilishga aylanib boradi.

Ijodiy ishlar, ijodiy matn yaratish mashqlari ana shu intilishga quvvat beradi.

¹ Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. 39-bet.

² N.M.Uluqov, D.A.Murodova. Ona tili. 9-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma T.: Tasvir, 2006. 110-bet.

³ Bu haqda qarang: A.Ergasheva. Ona tili darslarida nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash jarayonida nutq o'zlashuv metodikasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2010.

⁴ A.G'ulomov, B.Qobilova. Nutq o'zlashuv mashg'ulotlari: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T.: O'qituvchi, 1995. 3-bet.

⁵ Н.Д.Молдавская. Литературное развитие школьников в процессе обучения. М.: Педагогика, 1976. С. 25.

Noila MAHMUDOVA,

Namangan viloyati Pop tumanidagi 11-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi

YOZMA NUTQNI O'STIRISH MASHQLARI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar yozma nutqini o'stirishdir. Har bir darsda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini uyg'unlikda o'stirish ta'lim samaradorligini oshiribgina qolmay, balki o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini rivojlantiradi. Bu, ayniqsa, tilshunoslikning leksikologiya bo'limini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlariga oid nazariy bilimlar berish, darslikdagi mashqlarni bajartirishda "Kim tez va to'g'ri bajaradi?", "Kim zukko va topqir?" kabi ta'limiy o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu o'yinlarni quyidagi topshiriqlarni bajarishda qo'llash mumkin:

1-topshiriq. Zid ma'noli so'zlar juftliklarini imlo xatolarisiz yozish. Masalan: *achchiq-chuchuk, uzoq-yaqin, avval-keyin, yupqa-qalin, dangasa-yalqov* kabi.

2-topshiriq. Zid ma'noli so'zlar ishtirok etgan xalq maqollarini yozish. Masalan: *Yaxshilik nur keltirar, yomonlik – zulmat. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi. Kam gapirsang, ko'p eshitasan. Bor maqtansa, topilur, yo'q maqtansa, chopilur* kabi.

3-topshiriq. Ma'nodosh so'zlarga mos zid ma'noli so'zlar qatorini topib yozish. Masalan: *chiroyli, go'zal, husndor, kelishgan, xushro'y, ko'rkam, barno – xunuk, badbashara, tasqara, beso'naqay* kabi.

4-topshiriq. Adabiyot darslarida o'qilgan badiiy asar qahramonlariga qisqa tavsif berish.

Masalan: *Zumrad chiroyli, odobli, mehnatsevar, kamtar. Qimmat dangasa, yalqov, ochko'z.*

5-topshiriq. Ma'nodosh so'zlar qatorini yozish. Masalan: *shubha, gumon, ishonchsizlik; toza, sof, beg'ubor, musaffo; yanglish, xato, noto'g'ri* kabi.

6-topshiriq. Turli narsa, voqea-hodisalarni ifodalovchi tasviriy ifodalar yozish. Masalan: *mo'yqalam sohibi (rassom), so'z sa'natkori (yozuvchi, shoir), g'azal mulkining sultoni (Alisher Navoiy), oltin boshog' (bug'doy), charm qo'lqop ustasi (bokschi), hayotimiz qomusi (konstitutsiya), yashil vodi (Farg'ona)* kabi.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlariga doir imlosi qiyin so'zlar, juftliklar asosida quyidagi matnlar asosida lug'at va ijodiy topshiriqli diktantlar ham yozdirish mumkin.

Ma'nodosh so'zlar bo'yicha:

Shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo'kirmoq, to'ng'illamoq, ming'irlamoq, vaysamoq, javramoq, irod qilmoq, bayon etmoq (fe'llar); balli, barakalla, qoyil, tassanno, ofarin, sallamno (undov so'zlar) kabi.

Paronimlar bo'yicha:

So'zlarning ma'nolarini aniqlab yozing.

Afzal (yaxshi) – abzal (ot-ulovni egarlash asboblaridan biri); amr (buyruq) – amir (mansab); bob (qism) – bop (munosib); shoh (davlat boshlig'i) – shox (novda, daraxt shoxi); xil-xil (saralangan, tanlangan) – hil-hil (ezilib pishgan); hol (ahvol) – xol (odam tanasidagi xol) kabi.

Diktantni o'tkazish jarayonida so'zlarning imlosini bilmaslik natijasida talaffuzi o'xshash so'zlar – paronimlar bilan bog'liq xatolar yuzaga kelishi va bu mazmunga putur yetkazishi, uslubiy g'alizlikka olib kelishi uqtiliradi.

O'quvchilarga so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlariga doir yuqoridagi kabi topshiriqlarni bajartirish asosida ularning yozma nutqi boyitiladi, rivojlantiriladi, so'z boyligi orttiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, ijodiy fikrlash hamda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasi shakllantiriladi.